

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filialining
2026-yil 13-apreldagi
87-son buyrug'iga
14-ilova

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali**

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi lavozimlariga
MALAKA TALABLARI**

Samarqand

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi lavozimlariga MALAKA TALABLARI

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi boshlig‘i lavozimiga quyidagi malaka talablari qo‘yiladi:

- 1) oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi;
- 2) huquqni muhofaza qilish idoralarida kamida 3 (uch) yillik ish stajga ega bo‘lishi;
- 3) komplayens nazorati yo‘nalishida kamida 1 (bir) yillik ish stajiga ega bo‘lishi;
- 4) 2020–yil 20–oktyabrdagi PF–6084-son Farmoniga ko‘ra davlat tilini bilish bo‘yicha daraja sertifikatiga ega bo‘lishi;
- 5) raqamli texnologiyalar sohasida umumiy tushunchaga ega bo‘lishi;
- 6) normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, ular bilan ishlash tajribasiga va salohiyatiga ega bo‘lishi;
- 7) davlat xizmatchisi sifatida odob-axloq va etika qoidalari talablarini bilishi;
- 8) rahbarlik, tashkilotchilik qobiliyatlariga ega bo‘lishi hamda faoliyatida oxirgi bir yil ichida intizomiy jazoga tortilmagan bo‘lishi;
- 9) sud idoralari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilmagan bo‘lishi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisi

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi bosh mutaxassisi lavozimiga quyidagi malaka talablari qo‘yiladi:

- 1) oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi;
- 2) komplayens nazorati yo‘nalishida kamida 1 (bir) yillik ish stajiga ega bo‘lishi;
- 3) raqamli texnologiyalar sohasida umumiy tushunchaga ega bo‘lishi;
- 4) normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash tajribasiga va salohiyatiga ega bo‘lishi;
- 5) 2020–yil 20–oktyabrdagi PF–6084-son Farmoniga ko‘ra davlat tilini bilish bo‘yicha daraja sertifikatiga ega bo‘lishi;
- 6) davlat xizmatchisi sifatida odob-axloq va etika qoidalari talablarini bilishi;
- 7) Sud idoralari tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilmagan bo‘lishi.